



Legal status of non-governmental higher education institutions: experience from foreign countries

Ijobatkhon KODIRALIEVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2024

Received in revised form

15 November 2024

Accepted 25 November 2024

Available online

25 December 2024

Keywords:

educational institution,
non-state educational
institution,
joint-stock company,
educational service,
legal status of higher
educational institutions,
foreign experience.

ABSTRACT

In this article, the author analyzed the legal status of non-state higher education institutions from both a theoretical and practical standpoint, using the experience of foreign countries as an example. He also highlighted the existence of a number of controversial aspects regarding the legal status of higher education institutions.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss12/S-pp96-101>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi: xorijiy mamlakatlar tajribasi

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

ta'lim muassasasi,
nodavlat ta'lim muassasasi,
aksiyadorlik jamiyati,
ta'lim xizmati,
oliy ta'lim muassasalarining
huquqiy maqomi,
xorij tajribasi.

Muallif mazkur maqolada nodavlat oliy ta'lim muassasalarining huquqiy maqomi masalasini xorijiy mamlakatlar tajribasi misolida nazariy va amaliy jihatdan tahlil etgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarini huquqiy maqomi borasida bir qator bahsli jihatlar mavjudligini yoritib bergan.

¹ Teacher, Namangan State University.

Правовой статус негосударственных высших образовательных учреждений: опыт зарубежных стран

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

образовательное учреждение, негосударственное образовательное учреждение, акционерное общество, образовательная служба, правовой статус высших учебных заведений, зарубежный опыт.

В данной статье автор теоретически и практически проанализировал вопрос правового статуса негосударственных высших образовательных учреждений на примере опыта зарубежных стран. Также он осветил наличие ряда спорных аспектов в отношении правового статуса высших учебных заведений.

Nodavlat oliy ta'lim muassasalari – bu davlatga qarashli bo'lmagan, xususiy yoki jamoat tashkilotlari tomonidan ta'sis etilgan oliy o'quv yurtlari bo'lib, ular jamiyatdagi talablarga mos ravishda ta'lim berishni maqsad qilgan. Hozirgi globallashuv va tezkor rivojlanayotgan dunyoda nodavlat oliy ta'lim muassasalari axborot texnologiyalari, tadbirkorlik, iqtisodiyot va boshqa sohalaridagi zamonaviy bilimlarni yetkazishda muhim o'rin tutadi. Bunday muassasalar o'zlarining ilg'or ta'lim tizimi, pedagogik metodlar va zamonaviy o'quv dasturlari orqali talabalarga sifatli va xalqaro miqyosda raqobatbardosh ta'lim olish imkonini taqdim etmoqda.

Yaqin yillargacha (2016-yil) oliy ta'lim muassasalarida talabalar qamroviga doir muammolar ko'pchilikni qiynardi. Endi esa vaziyat tubdan o'zgarmoqda. Shu jumladan, oliy ta'lim tizimida ham tub islohotlar amalga oshirilmoqda, bozor iqtisodiyotining muhim qonuniyatlari hayotimizga tatbiq etilmoqda. Natijada bugungi kunda respublikada oliy ta'lim muassasalari soni 211 tani tashkil etadi, shundan 112 tasi davlatga, 30 tasi xorijiy va 69 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalariga tegishli. Yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrovi 43 foizga yetkazilgan.

Fuqarolik kodeksining 76-moddasi birinchi qismiga asosan, mulkdor tomonidan boshqaruv, ijtimoiy-madaniy yoki notijorat xususiyatga ega boshqa vazifalarni bajarish maqsadida tashkil etilgan va uning tomonidan to'liq yoki qisman moliyaviy qo'llab-quvvatlanadigan tashkilot muassasa sifatida baholanadi.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonunning 6-moddasi oltinchi qismiga muvofiq, ta'lim muassasalari o'z ustavlarida belgilangan vazifalar doirasida to'lov asosida ta'lim xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega bo'lib, bundan tashqari, ular qonunchilikka muvofiq ravishda tadbirkorlik faoliyatining boshqa turlari bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Bu esa ta'lim muassasalariga o'zining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, rivojlanish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi “Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4391-son qaroriga muvofiq OTMni bosqichma-bosqich o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish nazarda tutildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son qaroriga 1-ilova bilan tasdiqlangan ro'yxatga ko'ra, 40 ta oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy mustaqillik berilgan.

Bu o'z navbatida oliy ta'lim muassasalariga 2022-yil 1-yanvardan boshlab quyidagi masalalar bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolatini beradi:

- ta'lim xizmatlari bozoridagi talabni inobatga olgan holda to'lov-kontrakt asosida o'qitish qiymatini belgilash;
- talabalarning to'lov-kontrakt mablag'larini to'lash muddatlarini belgilash va uzaytirish;
- ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay oladigan va ilmiy izlanish olib boradigan mahalliy hamda xorijiy professor-o'qituvchi va mutaxassislarni shartnoma asosida jalb qilish;
- o'quv-ilmiy jarayonlarga jalb etilgan xorijiy yuqori malakali mutaxassislar mehnatiga haq to'lash miqdorlarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib belgilashga oid qarorlar qabul qilish;
- professor-o'qituvchilar shtat birliklarini kiritish me'yorlarini ishlab chiqish;
- o'z mablag'lari hisobidan talabalar uchun stipendiya va grantlar ajratish;
- xorijiy davlatlardan o'quv va ilmiy adabiyotlar, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalarni mualliflik huquqi bo'lgan ishlab chiqaruvchilardan to'g'ridan to'g'ri xarid qilish;
- bo'sh turgan bino va inshootlarda pullik xizmatlar ko'rsatish tartibini belgilash;
- avtotransport vositalarining yo'l bosish yillik limiti va ularga xizmat ko'rsatish talablarini belgilashi.

Mazkur vaziyatda OTMlarning o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tishi va ular mustaqilligini ta'minlash yo'nalishlaridan biri sifatida OTMlarni aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rinlarda AJ) shaklida qayta tashkil etish, ya'ni mavjud davlatga qarashli OTMlarni AJ tashkiliy-huquqiy shakliga o'zgartirish istiqbolini, bunday kutiladigan ijobiy samara va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni ko'rib chiqish lozim.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ham, boshqa ko'plab xorijiy davlatlarda bo'lgani kabi, aksiyadorlik jamiyati (AJ) shaklidagi oliy ta'lim muassasalari (OTM) tashkil etishga hech qanday cheklov yo'q. Bu "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasi (davlat va nodavlat ta'lim muassasalari) asosida belgilangan bo'lib, qonun hujjatlarida belgilangan talablarga javob beradigan, attestatsiya va akkreditatsiyadan o'tgan OTMlar ta'lim xizmatlari ko'rsatish huquqiga ega. Qozog'istonda esa 15 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi AJ shaklida faoliyat yuritib kelmoqda, ulardan birinchi bo'lib Qozoq gumanitar-yuridik universiteti (QozGYUU) AJ shakliga o'tgan. Universitet Qozog'iston hukumatining 2001-yil 24-oktyabrdagi "Qozoq davlat yuridik akademiyasini AJ shaklidagi Qozoq gumanitar-yuridik universitetiga o'zgartirish to'g'risida"gi №1358-son qaroriga binoan tashkil etilgan.

Oliy ta'lim muassasalarini AJ shaklida qayta tashkil etish masalalari bo'yicha Qozog'iston hukumatining 1999-yil 18-avgustdagi №1191-son qarori bilan "Oliy ta'lim muassasalarini AJ shaklida qayta tashkil etish Qoidalar" qabul qilingan. Keyinchalik, 2014-yil 23-iyundagi №696-son qaror bilan ushbu qoidalar o'z kuchini yo'qotgan. Qozog'iston hukumatining 2015-yil 30-dekabrdagi "2016–2020-yillarda xususiylashtirishning ayrim masalalari to'g'risida"gi №1141-son qaroriga muvofiq, M.S. Narikbayev nomidagi QozIYUU AJ to'liq xususiylashtirilishi belgilangan.

Qozog'iston Respublikasining 2001-yil 16-yanvardagi "Notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra, notijorat aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyatini amalga oshirish uchun aksiyalar chiqaradi, ammo foydani faqat jamiyatni rivojlantirish

maqsadida ishlatadi. Bunday jamiyatlar aksiyalardan tashqari boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarish huquqiga ega emas va ularning ta'sis shartnomasi muassislar yoki ularning vakillari tomonidan imzolaniadi. Notijorat tashkilotlari tijorat tashkilotlariga yoki aksincha o'zgartirilishi mumkin emas.

2016-yildan boshlab Qozog'istonda OTMlarda kuzatuv kengashlari joriy etilib, rektorlarni saylash amaliyoti qo'llanilmoqda. Shuningdek, davlat va milliy OTMlarni 2021-yildan boshlab notijorat aksiyadorlik jamiyati shaklida qayta tashkil etish takliflari bildirilgan. Bu jarayon kuzatuv kengashlari, endowment-fondlar tashkil etish, yillik ommaviy hisobotlar va auditdan o'tkazish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Endowment-fondlar notijorat tashkilotlarining maqsadli kapitali hisoblanadi va ular foyda olish maqsadida ishonchli boshqaruvga berilgan mol-mulkning bir qismini tashkil qiladi. Bunday fondlar Garvard, Yel, Priston va Stenford universitetlarida keng tarqalgan bo'lib, ularning kapitali milliardlab AQSH dollariga yetgan.

O'zbekiston Respublikasida ham bunday tashkilotlarni tashkil qilishga e'tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, 2020-yil 29-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-son Farmoni bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"da tegishli qadamlar belgilangan. Mazkur hujjatning 44-bandiga ko'ra, Toshkent davlat yuridik universitetida xayriya mablag'lari va bitiruvchilar assotsiatsiyasi (Alumni Association) hissalarini orqali Maqsadli kapital fondini (Endowment Fund) tashkil qilish ko'zda tutilgan. Bu fond universitet faoliyatini moliyalashtirishning yangi, barqaror manbaini yaratishga yo'naltirilgan bo'lib, u jamg'arilgan mablag'larni turli investitsiya loyihalariga jalb qilish va foydani ta'limni rivojlantirish maqsadida sarflash imkoniyatini taqdim etadi. Bu yo'nalishdagi tashabbuslar O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalari uchun yangi moliyaviy istiqbollarni ochib berishi hamda ta'lim sifatini oshirishga yordam berishi mumkin.

Ayrim davlatlarning (xususan, Germaniyani hisobga olmagan holda) deyarli barchasida xususiy oliy ta'lim muassasalari (OTM) ni tashkil etish mumkin bo'lib, qonunchilik istalgan yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shaklida ularning faoliyatini yo'lga qo'yishga ruxsat beradi. O'zbekistonda ham oliy ta'lim muassasalarini aksiyadorlik jamiyati (AJ) shakliga o'tkazishning ikki asosiy variantini taklif etish mumkin:

Birinchi variant, amaldagi qonun hujjatlari talablaridan kelib chiqqan holda, OTMlarni tijoratchi tashkilot bo'lgan aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish. O'zbekiston qonunchiligiga ko'ra, OTMni AJ shaklida qayta tashkil etish Fuqarolik kodeksining 49-moddasida belgilangan "o'zgartirish" usuli orqali amalga oshirilishi mumkin. Ya'ni bu jarayonda qayta tashkil etilayotgan OTMning tashkiliy-huquqiy shakli muassislar yoki muassasa hujjatlarida vakolat berilgan yuridik shaxs organining qaroriga binoan o'zgartiriladi.

O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga muvofiq, ustav fondi aksiyadorlar o'rtasida aksiyalar ko'rinishida taqsimlangan tijorat tashkiloti AJ hisoblanadi. Bu qonunning 9-moddasiga ko'ra, aksiyadorlik jamiyati o'zgartirish usuli orqali tashkil etilishi mumkin. OTMlarini AJ shakliga o'tkazish uchun davlat muassis sifatida asosiy aksiyador bo'lishi mumkin, ya'ni aksiyalarning nazorat paketini davlat o'z qo'lida saqlab qoladi.

AJ tashkil etish jarayonida muassislar ta'sis yig'ilishida tegishli qaror qabul qiladi va jamiyatning ustavi tasdiqlanadi. Shu orqali jamiyat yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Ikkinchi variantda esa Qozog'iston tajribasidan foydalangan holda, nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risidagi qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, notijorat aksiyadorlik jamiyatlarini tashkil etish mumkin. Bu asosda oliy ta'lim muassasalarini notijorat AJ shakliga aylantirish mumkin bo'ladi. Bunday holda, muassasa foydani qayta sarmoya qilish maqsadida, faqat ta'limni rivojlantirish uchun ishlatishi nazarda tutiladi.

Muassasa shaklida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalarini (OTM) aksiyadorlik jamiyati (AJ) shakliga o'zgartirish qator afzalliklarni taklif qiladi:

1) AJ biznesga kapitalni jalb qilishning samarali va ishonchli usullaridan biri hisoblanadi. Odatda, AJ tashkil etish yirik kapitallarni jalb qilish maqsadida amalga oshiriladi. Aksiyalarni chiqarish va sotish orqali ushbu maqsadga erishiladi.

2) Mablag'lar OTMning moddiy-texnik va axborot resurslarini rivojlantirish, pedagogik kadrlar va xodimlarni rag'batlantirish, shuningdek, ilm-fanning ustuvor yo'nalishlarida tadqiqotlarni moliyalashtirishda maqsadli dasturlarni erkin tanlash imkonini beradi.

3) OTM boshqaruvida umumiy yig'ilish, kuzatuv kengashi va ijro organlari tizimi joriy etiladi. Bu samarali boshqaruv, zamonaviy marketing strategiyalari va mustaqil shartnomaviy ta'lim hamda ilmiy xizmatlarni belgilash imkonini yaratadi.

4) Kadrlarni tanlash, ishga qabul qilish va bitiruvchilarni ish bilan ta'minlashda yangi usullar joriy etiladi, bu esa turli vazirlik va idoralarning byurokratik jarayonlaridan ozodlikni ta'minlaydi.

5) Ilmiy faoliyat orqali daromad olish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi. Mavjud tizimda ilmiy faoliyatdan topilgan mablag'lar turli fondlarga taqsimlanib, tegishli hissa qo'shmagan amaldorlarga ajratiladi. Yangi tizim buni o'zgartirishga imkon beradi.

6) Boshqaruv tizimini isloh qilish orqali turli nazoratchi idoralar va ularning byurokratik talablari cheklanadi, bu esa OTMning mustaqilligiga hissa qo'shadi.

Shu bilan birga, OTMlarni AJ shakliga o'tkazish ayrim xavflarni ham keltirib chiqarishi mumkin:

1) AJ aksiyadorlari, boshqaruvchilar va pedagogik xodimlar o'rtasida korporativ ziddiyatlar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Masalan, Aksiyadorlar dividend olishga qiziqsa, boshqaruvchilar rivojlanish uchun mablag' sarflashga urg'u beradi, pedagoglar esa maosh oshirilishini talab qilishi mumkin.

2) AJ shaklidagi OTM tijorat tashkilotlariga qo'llaniladigan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lashi kerak bo'ladi.

3) AJ umumiy yig'ilishi va OTM kengashi o'rtasida vakolatlar bo'yicha ixtiloflar paydo bo'lishi mumkin.

OTMlarni AJ shakliga o'tkazish, ta'lim va fan rivojlanishiga xizmat qiluvchi moliyaviy manbalarni samarali jalb qilish orqali sifatli kadrlar tayyorlash, amaliy va fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlashga sharoit yaratadi. Davlat muassasalariga qo'llaniladigan ortiqcha nazorat, moliyaviy taqsimotdagi cheklovlardan xalos bo'lish OTMni zamonaviy ta'lim bozorining kuchli raqobatchisi va ilmiy mahsulot yaratuvchisiga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi 2020-yil 23-sentyabrdagi Qonuni. (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son; *Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi*, 21.04.2021 y., 03/21/683/0375-son, 12.10.2021 y., 03/21/721/0952-son)
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-son qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 25.12.2021 y., 07/21/61/1195-son.
3. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi. – Toshkent, TDYUI, 2009. – B. 456.
4. Ro'ziyev R.J., Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. O'quv qo'llanma -T.: "Cho'lon", 2011. – 624 b.
5. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. Darslik. –T., «Yuridik adabiyotlar publish» 2022. 592 b.
6. Xomidov E.O. Davlat oliy ta'lim muassasalarining tadbirkorlik faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish. Yu.f.f.d. diss. 2020. -T.: O'zbekiston respublikasi milliy gvardiyasi harbiy-texnik instituti. 20-40-b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5987-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 30.04.2020 y., 06/20/5987/0521-son.